

16. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish

Yondosh mavzu:
Surxondaryo viloyati

Qo‘shish,
sinflar va xonalar



1. Birinchi kun Termiz – Qarshi yo‘lining 3 km 200 m qismi, ikkinchi kun 5 km 400 m qismi ta‘mirlandi. Yo‘Ining jami qancha qismi ta‘mirlandi?




2. Amallarni bajaring.

$$\begin{array}{r} + 4 \text{ km } 430 \text{ m} \\ + 2 \text{ km } 360 \text{ m} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} + 3 \text{ km } 570 \text{ m} \\ + 6 \text{ km } 349 \text{ m} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} + 4 \text{ km } 600 \text{ m} \\ + 3 \text{ km } 700 \text{ m} \\ \hline \end{array} \quad \begin{array}{r} + 7 \text{ km } 862 \text{ m} \\ + 8 \text{ km } 399 \text{ m} \\ \hline \end{array}$$



3. Sonlarning xonalarini va ularning bog‘lanishini eslang.



Ikkita ko‘p xonali sonni qo‘shish uchun:

- 1) sonlarni ustun shaklida yozing, har bir xonaning raqamlari bir-birining ostiga joylashsin;
- 2) o‘ng tomondan boshlab har bir xonadagi sonlarni qo‘shing. Agar natija 10 dan ortiq bo‘lsa, uning birliklarini shu xonaga yozing, o‘nliklar sonini katta xonaga o‘tkazing.

$\begin{array}{cccc} & 1 & 1 & \\ & \swarrow & \searrow & \\ 3 & 1 & 7 & 4 \\ + & 2 & 5 & 4 \\ \hline & 5 & 7 & 18 \end{array}$	$\begin{array}{cccc} 1 & 1 & 1 & 1 \\ \swarrow & \searrow & \downarrow & \\ 9 & 1 & 7 & 7 \\ + & 8 & 9 & 2 \\ \hline & 18 & 10 & 4 \end{array}$
---	---



16. Ko'p xonali sonlarni qo'shish

4. Amallarni bajaring.

$$\begin{array}{r} + 23\ 715 \\ + 13\ 084 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 28\ 400 \\ + 13\ 500 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 382\ 659 \\ + 193\ 548 \\ \hline \end{array}$$

$$\begin{array}{r} + 33\ 000\ 490 \\ + 5\ 189\ 570 \\ \hline \end{array}$$

5. Termizda noyob arxeologik muzey bor. U yerda 8 529 ta qadimiy tanga, 4 238 ta ro'zg'or ashyolari, 245 ta haykal va tangalardan 2 897 ta ko'p taqinchoqlar saqlanadi. Muzeyda hammasi bo'lib qancha eksponat bor?


6. Jadvalga qarab masalani yeching.

Arxeologlar qadimgi odamlarning mehnat quollarini topdilar.

			
Nayza	Chopqi	Kesish asbobi	Kurakcha
876	Nayzadan 584 ta ko'p	Nayzadan 598 ta kam	Kesish asbobidan 235 ta ko'p

Hammasi bo'lib nechta mehnat quroli topilgan?


7. Kataklarga qanday sonlar yozilishi kerak?



16. Ko‘p xonali sonlarni qo‘shish



8. Poyezd Toshkentdan soat nechada yo‘lga chiqib, Termizga soat nechada yetib kelishini aniqlang. Agar poyezd Termizdan kechqurun yo‘lga chiqsa va Toshkentga ertalab yetib kelsa, u qancha vaqt yo‘lda yurgan bo‘ladi?



9. Daftaringizga sehrli kvadrat chizing. Har bir qator va ustundagi sonlar yig‘indisi doira ichida yozilgan songa teng bo‘lsin.

316	456	
115		427

900



10. Poyezd Termizga 18:24 da yetib keldi. Mahmud elektron tablodagi raqamlar yig‘indisi 15 ga teng ekaniga ahamiyat berdi. Tablodagi raqamlarning eng katta yig‘indisi nechaga teng bo‘lishi mumkin?



11. Yig‘indini ustun ko‘rinishida hisoblang.

a) $73\ 263 + 80\ 212$	b) $560\ 890 + 125\ 076$
d) $900\ 997 + 54\ 028$	e) $112\ 229\ 037 + 220\ 987\ 217$
f) $999\ 999 + 3$	g) $99\ 999\ 999 + 999\ 999$



12. Muzey kutubxonasida qadimgi kitoblar va tarixiy hujjatlar saqlanadi. Kitoblar soni 6 543 ta bo‘lib, bu hujjatlarga qaraganda 4 298 taga kam. Muzeyda jami nechta kitob va hujjatlar bor?